Mazkur yondashuvni iqtisodiy jihatdan xaridor bilan tibbiy xizmat ko'rsatuvchi o'rtasidagi agentlik munosabatlari (*principal-agent relationship*) orqali izohlash mumkin. Tibbiy tashkilot bemorning klinik holati, xizmat hajmi va davolash xarajatlari to'g'risida xarid qiluvchiga nisbatan ko'proq axborotga ega. Ushbu axborot assimetriyasi (*information asymmetry*) yetarli nazorat va muvofiq to'lov shartlari mavjud bo'lmaganda ortiqcha xizmat ko'rsatish, xarajatlarni oshirish, murakkab bemorlarni qabul qilmaslik yoki xizmat sifatini pasaytirish xavfini yuzaga keltiradi. Strategik xarid ushbu muammoni shartnomaviy munosabatlarni takomillashtirish, iqtisodiy rag'batlarni qayta shakllantirish hamda monitoring va sifat nazorati mexanizmlarini uyg'unlashtirish orqali hal etishga qaratilgan.

Strategik xaridda iqtisodiy rag'batlar, avvalo, tibbiy xizmatlarga haq to'lash mexanizmlari orqali shakllantiriladi. Biroq strategik xaridning natijadorligi faqat to'lov usulini almashtirish bilan ta'minlanmaydi. Masalan, ko'rsatilgan xizmat uchun haq to'lash usuli (*Fee-for-Service, FFS*) xizmatlar hajmini oshirishga rag'bat bersa, jon boshiga moliyalashtirish usuli (*Capitation*) xarajatlarni nazorat qilishga yordam beradi, biroq yetarli sifat nazorati bo'lmasa, xizmat hajmining kamayishiga olib kelishi mumkin. Tashxis bilan bog'liq guruhlar bo'yicha to'lov (*Diagnosis-Related Groups, DRG*) statsionar davolashning texnik samaradorligini oshirishi mumkin, ayni paytda holatlarni noto'g'ri kodlash yoki bemorlarni muddatidan oldin chiqarish xavfini ham yuzaga keltiradi. Demak, iqtisodiy natija to'lov usulining nomiga emas, uning dizayni, hisobdorlik tizimi va boshqa xarid vositalari bilan uyg'unligiga bog'liq.

O'zbekistonda davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarining joriy etilishi davlat mablag'lari hisobidan tibbiy xizmatlarni xarid qilish munosabatlarini qayta ko'rib chiqishni talab etmoqda. Islohotning amaliy qiymati yangi moliyalashtirish tartibini joriy etish bilangina emas, balki xarid qarorlarini aholining ehtiyojlari, kafolatlangan tibbiy yordam paketi, xizmat sifati va iqtisodiy natijalar bilan bog'lash orqali namoyon bo'ladi. Shu jihatdan passiv



moliyalashtirishdan strategik xarid tizimiga o'tish institutsional o'zgarish bilan bir qatorda, tibbiy tashkilotlarning iqtisodiy xatti-harakatlarini o'zgartirish jarayoni hamdir.

Tadqiqotning maqsadi davlat tibbiy sug'urtasida strategik xaridning iqtisodiy mohiyatini ochib berish, uni passiv xarid bilan qiyosiy iqtisodiy tahlil qilish hamda ushbu yondashuvlar o'rtasidagi konseptual farqlarni asoslashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mavzuga oid ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, davlat tibbiy sug'urtasida strategik xarid nazariyasi sog'liqni saqlashni moliyalashtirish samaradorligini oshirishning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida shakllangan. Xalqaro tadqiqotlarda strategik xarid ko'proq universal sog'liqni saqlash qamrovini ta'minlash, resurslarni samarali taqsimlash va xaridorning faol boshqaruv rolini kuchaytirish nuqtai nazaridan o'rganilgan, biroq ushbu yondashuvning passiv xariddan konseptual farqlari hamda iqtisodiy mohiyati alohida tizim sifatida yetarlicha umumlashtirilmagan.

Strategik xarid nazariyasining shakllanishida I. Mathauer, E. Dale, B. Meessen va J. Kutzinning tadqiqotlari muhim o'rin egallaydi. Mazkur mualliflar strategik xaridni mablag'larni oddiy taqsimlash mexanizmi emas, balki aholining sog'liq ehtiyojlari, xizmat sifati va sog'liqni saqlash tizimining ustuvor maqsadlari asosida xarid qarorlarini shakllantirish jarayoni sifatida talqin qiladilar [4; 6]. Muallif ushbu yondashuvni tadqiqotning nazariy asosi sifatida qabul qiladi, biroq strategik xaridning iqtisodiy mazmunini passiv xarid bilan qiyoslash orqali yanada chuqurroq ochib berishni zarur deb hisoblaydi.

Tibbiy xizmatlarga haq to'lash mexanizmlarining iqtisodiy rag'batlarga ta'siri J. Langenbrunner, C. Cashin, S. O'Dougherty hamda R. Busse tadqiqotlarida batafsil yoritilgan. Ular *Fee-for-Service*, *Capitation* va *Diagnosis-Related Groups* (DRG) kabi to'lov mexanizmlarining tibbiy xizmat ko'rsatuvchilarning iqtisodiy xatti-harakatiga turlicha ta'sir ko'rsatishini asoslaydi [2; 3; 5]. Muallif ushbu xulosalarni qo'llab-quvvatlaydi, biroq to'lov usullarini strategik xaridning o'zi emas, balki uning iqtisodiy maqsadlarini amalga oshiruvchi instrumentlar sifatida baholaydi.

Qiyamatga asoslangan sog'liqni saqlash konsepsiyasi M. Porter va R. Kaplan tadqiqotlarida rivojlantirilgan bo'lib, ular sog'liqni saqlash tizimi samaradorligini sarflangan resurslar emas, balki bemor uchun yaratilgan qiymat orqali baholash zarurligini asoslaydi [7; 8]. Ushbu yondashuv strategik xaridning natijadorlikka yo'naltirilgan mohiyatini tushunishda muhim nazariy asos bo'lsa-da, u xaridorning institutsional funksiyalari va shartnomaviy boshqaruv mexanizmlarini to'liq qamrab olmaydi.

O'zbekistonda davlat tibbiy sug'urtasi tizimini bosqichma-bosqich joriy etish va strategik xarid tamoyillarini amaliyotga tatbiq etish bo'yicha muhim institutsional islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **2024-yil 5-sentabrdagi PQ-311-son¹** qarori Davlat mablag'lari hisobidan tibbiy xizmatlarni strategik xarid qilishning huquqiy asoslarini belgilab berdi [1]. Biroq mavjud milliy tadqiqotlarda strategik xarid ko'proq alohida moliyalashtirish usullari yoki davlat tibbiy sug'urtasi tizimining funksional elementi sifatida yoritilib, passiv xariddan strategik xaridga o'tishning iqtisodiy mohiyati, agentlik munosabatlari, axborot assimetriyasi va iqtisodiy rag'batlarning o'zaro bog'liqligi yetarli darajada tizimlashtirilmagan.

Shu munosabat bilan mazkur tadqiqot passiv va strategik xaridni qiyosiy institutsional tahlil asosida baholaydi, ularning iqtisodiy farqlarini nazariy jihatdan asoslaydi hamda davlat tibbiy sug'urtasi sharoitida strategik xaridning asosiy tarkibiy elementlari va konseptual modelini taklif etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy institutsional tahlil, alohida holatni o'rganish (*case study*), ilmiy abstraksiyalash va mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Passiv va strategik xarid modellari resurslarni taqsimlash, xarid qiluvchining vakolatlari, shartnomaviy munosabatlar, to'lov usullari, iqtisodiy rag'batlar va monitoring mezonlari bo'yicha qiyoslandi.

Institutsional tahlil xarid qiluvchi tashkilot bilan tibbiy xizmat ko'rsatuvchilar o'rtasidagi agentlik munosabatlari, axborot assimetriyasi va tranzaksiya xarajatlarining xarid natijalariga ta'sirini baholash uchun qo'llanildi. Turkiya tajribasi strategik xarid instrumentlarining o'zaro bog'liqligini tahlil qilish imkonini beruvchi namunaviy amaliy holat sifatida tanlandi.

1. Passiv xarid va strategik xaridning iqtisodiy mohiyatini qiyosiy tahlil qilish

Passiv xarid sharoitida moliyaviy mablag'lar, odatda, tibbiy tashkilotlarning avvalgi xarajatlari, shtatlar soni, mavjud quvvatlari yoki belgilangan smeta ko'rsatkichlari asosida taqsimlanadi. Bunday mexanizm muassasalar faoliyatining uzluksizligini ta'minlashi mumkin, biroq ajratilgan mablag' bilan erishilgan klinik va iqtisodiy natija

¹ <https://lex.uz/uz/docs/-7098084>



o'rtasida bevosita bog'liqlik yaratmaydi. Xarid qiluvchi tashkilot xizmatlarning tarkibi, sifati va yakuniy natijasiga faol ta'sir ko'rsatmaydi.

Mazkur modelning asosiy iqtisodiy kamchiligi tibbiy tashkilotlarning manfaatlari bilan sog'liqni saqlash tizimining strategik maqsadlari o'rtasidagi nomuvofiqlikdir. Muassasa kelgusi davrda ko'proq mablag' olish uchun xarajatlarni kamaytirish yoki mavjud quvvatlardan samarali foydalanishdan manfaatdor bo'lmisligi mumkin. Aksincha, yuqori xarajat va katta shtat hajmi keyingi moliyalashtirish uchun asos vazifasini bajaradi. Natijada tejamkorlik iqtisodiy afzallik emas, balki kelajakdagi mablag'ning qisqarish xavfi sifatida qabul qilinadi.

Strategik xaridda esa xarid qiluvchi tashkilot mablag'larni taqsimlovchi ma'muriy bo'g'indan iqtisodiy qaror qabul qiluvchi strategik xaridorga aylanadi. U aholining ehtiyojlarini aniqlaydi, ustuvor xizmatlarni tanlaydi, xizmat ko'rsatuvchilar bilan shartnomalar tuzadi, to'lov shartlarini belgilaydi va natijalarni baholaydi. Shu tariqa moliyaviy oqimlar muassasaning mavjudligiga emas, uning tizim maqsadlariga qo'shgan hissasiga bog'lanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

1-jadval. Passiv xarid va strategik xaridning qiyosiy tavsifi

T/p	Qiyoslash mezon	Passiv xarid	Strategik xarid
1	Asosiy maqsad	Muassasalarni saqlash va xarajatlarni qoplash	Aholi ehtiyojlari asosida maksimal sog'liq natijasiga erishish
2	Resurslarni taqsimlash asosi	Tarixiy xarajat, smeta, shtat va quvvat	Ehtiyoj, ustuvorlik, xizmat hajmi, sifat va natija
3	Xarid qiluvchining roli	Mablag'larni ma'muriy taqsimlash	Faol xaridor va iqtisodiy boshqaruvchi
4	Xizmatlar paketi	Mavjud taklif asosida shakllanadi	Klinik va iqtisodiy mezonlar asosida belgilanadi
5	Xizmat ko'rsatuvchini tanlash	Avtomatik yoki hududiy birlashtirish	Salohiyat, sifat, xarajat va natija asosida tanlash
6	Shartnomaviy munosabatlar	Formal yoki cheklangan	Natija, sifat, hajm va javobgarlikni belgilovchi shartnoma
7	Haq to'lash	Xarajatlarni qoplash yoki smeta	Maqsadga mos to'lov usullari kombinatsiyasi
8	Monitoring	Mablag'larning sarflanishi nazorati	Xarajat, hajm, sifat va klinik natijalarni baholash
9	Iqtisodiy rag'bat	Quvvat va xarajatlarni saqlash	Samaradorlik, sifat va natijadorlikni oshirish
10	Asosiy xavf	Samarasiz xarajatlarni va hisobdorlikning sustligi	Noto'g'ri dizayn qilingan rag'batlar va ortiqcha tranzaksiya xarajatlari

Manba: Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO, 2017) va Jahon banki (World Bank, 2009) yondashuvlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Jadvaldan ko'rinadiki, ikki model o'rtasidagi farq faqat mablag'larni hisoblash texnikasida emas. Asosiy tafovut moliyaviy qarorlarning maqsadi va ularga asos bo'ladigan axborotda namoyon bo'ladi. Passiv xarid o'tgan davrdagi xarajatlarni takror ishlab chiqarsa, strategik xarid kelajakda erishilishi lozim bo'lgan natijalarni moliyaviy shartlarga aylantiradi.

Biroq strategik xarid avtomatik ravishda yuqori samaradorlikni kafolatlamaydi. Uning natijasi xarid qiluvchi tashkilotning vakolatlari, axborot tizimlarining sifati, shartnomalarni boshqarish salohiyati va tanlangan to'lov usullarining dizayniga bog'liq. Yetarli ma'lumot bo'lmasa, xizmat ko'rsatuvchilarning xatti-harakatini baholash qiyinlashadi. Juda murakkab nazorat tizimi esa tranzaksiya xarajatlarni oshirib, kutilgan iqtisodiy samarani kamaytirishi mumkin.

Shu sababli strategik xaridning vazifasi barcha xavflarni yo'q qilish emas, balki ularni boshqarish va iqtisodiy rag'batlarni tizim maqsadlari bilan uyg'unlashtirishdir. Ko'rsatilgan xizmat uchun haq to'lash xizmatlar sonini ko'paytirishi, jon boshiga moliyalashtirish xarajatlarni cheklashi, tashxis bilan bog'liq guruhlar bo'yicha



to'lov statsionar yordamning texnik samaradorligini oshirishi mumkin. Har bir usul muayyan iqtisodiy rag'bat yaratadi va ayni paytda nojo'ya xatti-harakatlar xavfini yuzaga keltiradi. Xarid qiluvchining roli ushbu rag'batlarni sifat ko'rsatkichlari, klinik standartlar va monitoring vositalari orqali muvozanatlashtirishdan iborat.

Passiv xariddan strategik xaridga o'tishning iqtisodiy mohiyati uchta o'zgarishda namoyon bo'ladi. Birinchidan, mablag' muassasani saqlash vositasidan tibbiy natijaga erishish vositasiga aylanadi. Ikkinchidan, tibbiy xizmat ko'rsatuvchining daromadi uning xarajatlari bilan emas, belgilangan majburiyatlarni bajarishi bilan bog'lanadi. Uchinchidan, xarid qiluvchi tashkilot xizmatlar hajmini moliyalashtirishdan tashqari, ularning tarkibi, sifati va qiymatiga ham ta'sir ko'rsatadi.

Demak, strategik xarid tibbiy xizmatlarga haq to'lash usullaridan kengroq bo'lgan boshqaruv tizimidir. Uning samaradorligi shartnomalar, iqtisodiy rag'batlar va monitoring mexanizmlarining o'zaro uyg'unligiga bog'liq. Aynan shu jihat uni passiv xariddan strategik xaridga o'tishning iqtisodiy asosi sifatida tavsiflaydi.

2. Turkiyada strategik xaridga o'tish tajribasi: iqtisodiy rag'batlar va xaridor rolidagi o'zgarishlar

Turkiyada **2003-yildan** boshlab amalga oshirilgan **"Sog'liqni saqlashni transformatsiya qilish dasturi"** sog'liqni saqlashni moliyalashtirish va xizmatlarni xarid qilish tizimini tubdan o'zgartirdi. Islohotgacha moliyaviy resurslar bir nechta sug'urta tashkilotlari va davlat dasturlari o'rtasida tarqoq holda boshqarilgan, aholining tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari esa fuqarolarning bandlik maqomi va sug'urta turiga qarab farqlangan. Moliyalashtirishning parchalanishi risklarni samarali jamlash, yagona xizmatlar paketini shakllantirish va strategik xaridni amalga oshirish imkoniyatlarini cheklagan.

Islohotning muhim natijalaridan biri tarqoq sug'urta fondlarini **Ijtimoiy ta'minot instituti - SGK** doirasida birlashtirish bo'ldi. Yagona xaridorning shakllanishi moliyaviy oqimlarni markazlashtirish bilangina cheklanmay, xizmatlarni qoplash shartlari, tariflar va shartnomaviy talablarni muvofiqlashtirish imkonini berdi. Shu tariqa xaridorning bozor kuchi oshdi, tibbiy xizmat ko'rsatuvchilar bilan munosabatlarda yagona qoidalar shakllandi va tranzaksiya xarajatlarning bir qismi qisqardi.

Aholi uchun yagona xizmatlar paketining kengaytirilishi xarid siyosatini tarixiy moliyalashtirish modelidan aholining ehtiyojlariga yo'naltirilgan strategik xarid modeliga o'tkazdi. Bunda xizmatlarning qaysi turlari davlat tomonidan qoplanishi, qaysi xizmatlar uchun qo'shimcha shartlar belgilanishi va tibbiy tashkilotlarga qanday tartibda haq to'lanishi yagona institutsional tizim doirasida ko'rib chiqildi. Natijada xarid qarorlari taklif etuvchi muassasalarning tarixiy xarajatlardan ko'ra, aholi qamrovi va xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari bilan ko'proq bog'landi.

Birlamchi tibbiy yordamda jon boshiga moliyalashtirish usulining joriy etilishi oilaviy shifokorlarni birlashtirilgan aholi salomatligi uchun mas'ul qilishga xizmat qildi. Ushbu usul xizmatlar sonini sun'iy oshirishga rag'batni kamaytirib, profilaktika va kasalliklarni erta aniqlashga iqtisodiy asos yaratdi. Biroq jon boshiga to'lovning o'zi xizmat sifatini kafolatlamagani sababli, u faoliyat ko'rsatkichlari va nazorat mexanizmlari bilan to'ldirildi.

Statsionar yordamda tashxis bilan bog'liq guruhlar bo'yicha to'lov elementlarining joriy etilishi muassasalar daromadini yotoq o'rinlari soni yoki haqiqiy xarajatlarni qoplashga emas, balki davolangan holatlarning murakkabligiga bog'lashga qaratildi. Bu tibbiy tashkilotlarda davolash muddatini qisqartirish va resurslardan oqilona foydalanish rag'batini kuchaytirdi. Ayni paytda noto'g'ri kodlash, murakkab holatlarni sun'iy ko'rsatish va bemorni muddatidan oldin chiqarish xavflari monitoring tizimiga talabni oshirdi (**2-jadval**).

2-jadval. Turkiya islohotlarining strategik xaridga ta'siri

T/p	Islohot yo'nalishi	Amalga oshirilgan o'zgarish	Iqtisodiy va institutsional natija
1	Sug'urta fondlarini birlashtirish	SGK yagona xaridor sifatida shakllantirildi	Xaridorning muzokara kuchi va risklarni jamlash imkoniyati oshdi
2	Xizmatlar paketini unifikatsiya qilish	Aholi guruhlari uchun qoplama shartlari yaqinlashtirildi	Tibbiy yordamdan foydalanishdagi tengsizlik qisqardi
3	Shartnomaviy munosabatlar	Davlat va xususiy xizmat ko'rsatuvchilar bilan yagona talablar asosida shartnomalar tuzildi	Xaridorning sifat va xarajatga ta'sir imkoniyati kuchaydi
4	Haq to'lash usullari	Birlamchi bo'g'inda jon boshiga, statsionarda holatga asoslangan to'lovlar qo'llanildi	Xizmat ko'rsatuvchilarning iqtisodiy xatti-harakati o'zgardi
5	Axborot tizimlari	Elektron hisob va da'volarni tekshirish tizimlari rivojlantirildi	Axborot assimetriyasi va asossiz to'lovlarni kamaytirish imkoniyati yaratildi



Jadval islohot muvaffaqiyatining biror to'lov usuli bilan emas, institutsional elementlarning o'zaro uyg'unligi bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Yagona xaridor, xizmatlar paketi, shartnomalar, haq to'lash va axborot tizimlari birgalikda faoliyat yuritgandagina moliyaviy oqimlar xizmat ko'rsatuvchilarning xatti-harakatiga ta'sir qiluvchi boshqaruv vositasiga aylangan.

Turkiya tajribasi strategik xaridning natijadorligi, avvalo, xaridorning institutsional salohiyati va axborot tizimlariga bog'liqligini ko'rsatadi. O'zbekiston uchun ushbu tajribadan olinadigan asosiy saboq tayyor modelni ko'chirish emas, balki yagona xarid siyosati, raqamli monitoring va iqtisodiy rag'batlarni uyg'un rivojlantirishdan iborat.

3. Strategik xaridning asosiy tarkibiy elementlari va konseptual modeli

Strategik xaridni alohida instrument sifatida emas, balki o'zaro bog'liq institutsional qarorlar tizimi sifatida baholash maqsadga muvofiq. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, zamonaviy tibbiy xizmatlarga haq to'lash usullarini joriy etishning o'zi sog'liqni saqlash tizimida yuqori natijadorlikni ta'minlamaydi. Agar kafolatlangan xizmatlar paketi aniq belgilanmagan, xizmat ko'rsatuvchilarni tanlash mezonlari ishlab chiqilmagan yoki monitoring tizimi yetarli darajada rivojlanmagan bo'lsa, eng ilg'or moliyalashtirish usullari ham kutilgan iqtisodiy natijani bermaydi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti strategik xaridni uchta asosiy savol orqali izohlaydi: nima xarid qilinadi, kimdan xarid qilinadi va qanday xarid qilinadi. Davlat tibbiy sug'urtasi tizimida ushbu yondashuvni yanada kengroq talqin qilish zarur. Chunki xarid jarayoni xizmatni xarid qilish bilan tugamaydi; u natijalarni baholash va keyingi qarorlarni takomillashtirish bosqichini ham o'z ichiga oladi. Shu sababli strategik xaridni uzluksiz boshqaruv sikli sifatida ko'rish iqtisodiy jihatdan asosliroq hisoblanadi.

Mazkur yondashuv asosida davlat tibbiy sug'urtasi sharoitida strategik xaridning yettita o'zaro bog'liq tarkibiy elementi tizimlashtirildi(3-jadval).

3-jadval. Davlat tibbiy sug'urtasida strategik xaridning asosiy tarkibiy elementlari

T/p	Tarkibiy element	Asosiy vazifasi	Kutilayotgan iqtisodiy natija
1	Aholining sog'liq ehtiyojlarini baholash	Ustuvor sog'liq muammolarini aniqlash	Resurslarni ehtiyojlarga mos taqsimlash (allocativ samaradorlik)
2	Kafolatlangan xizmatlar paketini shakllantirish	Moliyalashtiriladigan xizmatlarni tanlash	Mablag'larni eng yuqori ijtimoiy foyda beruvchi xizmatlarga yo'naltirish
3	Tibbiy xizmat ko'rsatuvchilarni tanlash va shartnomalar	Tibbiy xizmat ko'rsatuvchilar bilan natijaga yo'naltirilgan hamkorlik	Hisobdorlik va raqobatni kuchaytirish
4	Tibbiy xizmatlarga haq to'lash usullarini tanlash	Iqtisodiy rag'batlarni shakllantirish	Texnik samaradorlik va xarajatlarni nazorat qilish
5	Monitoring va nazorat	Moliyaviy hamda klinik ko'rsatkichlarni kuzatish	Axborot assimetriyasini kamaytirish
6	Natijalarni baholash	Xarid maqsadlariga erishish darajasini aniqlash	Qarorlar sifatini oshirish
7	Xarid siyosatini takomillashtirish	Qayta rejalashtirish va moslashtirish	Tizimning uzluksiz rivojlanishi va qiymat yaratish


Jadval strategik xaridni ketma-ket bajariladigan ma'muriy amallar yig'indisi sifatida emas, balki yagona iqtisodiy boshqaruv mexanizmi sifatida talqin qilish imkonini beradi. Har bir element keyingisining sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Masalan, ehtiyojlar noto'g'ri baholansa, xizmatlar paketi samarasiz shakllanadi; xizmatlar paketi noto'g'ri tanlansa, eng mukammal to'lov usullari ham resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlay olmaydi.

Shuningdek, elementlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik agentlik munosabatlarini boshqarish uchun ham muhimdir. Xarid qiluvchi tashkilot shartnomalar, monitoring va natijalarni baholash orqali tibbiy xizmat ko'rsatuvchilarning iqtisodiy manfaatlarini davlat tibbiy sug'urtasi tizimining strategik maqsadlari bilan uyg'unlashtiradi. Natijada moliyalashtirish jarayoni oddiy xarajatlarni qoplash vositasidan qiymat yaratishga yo'naltirilgan boshqaruv mexanizmiga aylanadi.

Strategik xaridning eng muhim farqlovchi jihati alohida elementlarning mavjudligida emas, balki ular o'rtasida uzluksiz qayta aloqa (*feedback*) mexanizmining shakllanishidir. Xarid natijalari muntazam tahlil qilinmasa, keyingi qarorlar avvalgi xatolarni takrorlaydi va tizimning moslashuvchanligi pasayadi(1-rasm).



Shu asosda davlat tibbiy sug'urtasida strategik xaridning quyidagi konseptual modeli taklif etiladi.
1-rasm



Taklif etilgan modelning asosiy farqli jihati strategik xaridni faqat uchta klassik savol — nima, kimdan va qanday xarid qilish - doirasida emas, balki uzluksiz boshqaruv sikli sifatida talqin etishidir. Mazkur yondashuv xarid siyosatini bir martalik moliyaviy qaror sifatida emas, balki yangi ma'lumotlar, monitoring natijalari va sog'liqni saqlash tizimidagi o'zgarishlarga mos ravishda doimiy takomillashib boradigan iqtisodiy mexanizm sifatida ko'rsatadi.

O'zbekiston sharoitida mazkur yondashuv davlat tibbiy sug'urtasini rivojlantirishning keyingi bosqichi uchun metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Chunki islohotlarning muvaffaqiyati alohida moliyalashtirish usullarini joriy etishga emas, balki ularni yagona strategik xarid tizimiga integratsiya qilish darajasiga bog'liq. Shunday sharoitdagina davlat mablag'laridan foydalanish samaradorligi, tibbiy xizmatlar sifati va aholining tibbiy yordamdan foydalanish imkoniyatlarini bir vaqtning o'zida yaxshilash mumkin bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Sog'liqni saqlashni moliyalashtirish tizimida resurslar hajmidan ko'ra ularni boshqarish mexanizmlari tizim natijadorligini ko'proq belgilaydi. Shu bois tadqiqot davlat tibbiy sug'urtasida passiv xariddan strategik xaridga o'tishning iqtisodiy mohiyatini tahlil qildi. Tadqiqot strategik xaridning tibbiy xizmatlarga haq to'lash usullaridan kengroq bo'lgan boshqaruv tizimi ekanligini asoslab berdi. Haq to'lash usullari esa ushbu tizimning iqtisodiy maqsadlarini amalga oshiruvchi instrumentlar hisoblanadi.

Qiyosiy tahlil passiv va strategik xarid o'rtasidagi asosiy farq mablag'larni taqsimlash usulida emas, balki boshqaruv yondashuvida ekanligini ko'rsatdi. Strategik xarid resurslardan samarali foydalanish va iqtisodiy rag'batlarni tizim maqsadlari bilan uyg'unlashtirish uchun institutsional sharoit yaratadi.

Turkiya tajribasi strategik xaridning muvaffaqiyati yagona xaridor, shartnomaviy boshqaruv, axborot tizimlari va monitoringning o'zaro uyg'unligiga bog'liqligini tasdiqladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi davlat tibbiy sug'urtasi sharoitida strategik xaridning o'zaro bog'liq tarkibiy elementlarini tizimlashtirish va uning konseptual modelini taklif etishdan iborat. Taklif etilgan model strategik xaridni uzluksiz boshqaruv sikli sifatida talqin qiladi.



O'zbekistonda davlat tibbiy sug'urtasi tizimini rivojlantirish uchun strategik xaridning institutsional elementlarini kompleks joriy etish talab etiladi. Bu xaridor salohiyatini kuchaytirish, axborot tizimlarini rivojlantirish, shaffof shartnomaviy munosabatlarni shakllantirish va iqtisodiy rag'batlarni tizim maqsadlari bilan uyg'unlashtirish orqali ta'minlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **2024-yil 5-sentabrdagi “Davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini joriy etishga oid chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-311-son² qarori.**
2. Busse, R., Geissler, A., Quentin, W., & Wiley, M. (2011). *Diagnosis-Related Groups in Europe: Moving towards Transparency, Efficiency and Quality in Hospitals*. Open University Press.
3. Cashin, C., Chi, Y. L., Smith, P., Borowitz, M., & Thomson, S. (2014). *Paying for Performance in Health Care: Implications for Health System Performance and Accountability*. Open University Press.
4. Kutzin, J. (2013). *Health Financing for Universal Coverage and Health System Performance*. *Bulletin of the World Health Organization*, **91**(8), 602–611.
5. Langenbrunner, J., Cashin, C., & O'Dougherty, S. (Eds.). (2009). *Designing and Implementing Health Care Provider Payment Systems*. World Bank.
6. Mathauer, I., Dale, E., & Meessen, B. (2017). *Strategic Purchasing for Universal Health Coverage: Key Policy Issues and Questions*. World Health Organization.
7. Porter, M. E. (2010). *What Is Value in Health Care?*
8. Porter, M. E., & Kaplan, R. S. (2016). *How to Pay for Health Care*. *Harvard Business Review*.

2 <https://lex.uz/uz/docs/-7098084>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 7/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>